

QOSIMJON SODIQOVNING “MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK ASOSLARI” O‘QUV QO‘LLANMASINING TASNIFIY TAHLILI

Muallif: Nematullayeva Maftuna

*Ish joyi: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
qoshidagi akademik litsey o‘qituvchisi
Ilmiy darajasi: Magistr*

Anotatsiya

Ushbu maqolada Qosimjon Sodiqovning “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari” o‘quv qo‘llanmasining tasnifiy tahlili ilmiy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: matnshunoslik, adabiy manba, tasnif, tahlil

Adabiyot tarixini matnlarsiz, manbalarsiz o‘rganib bo‘lmaydi. Binobarin, mumtoz adabiyot asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzish, adabiyotimiz tarixi uchun muhim bo‘lgan manbalarni tadqiq qilish, nashrga tayyorlash va ilmiy iste‘molga kiritish o‘ta dolzarb vazifa deb e’tirof etilishi lozim. Buni faqat ilmiy jamoatchilik emas, balki fanni boshqaruvchi tashkilotlar, ular huzuridagi ekspert hay‘atlari ham e’tirof etishlari va ilmiy loyihalarni baholashda hisobga olishlari zarur.

Matnshunoslik qo‘lyozma nusxaning matn xususiyatlaridan tortib nashr ko‘rinishidagi barcha yutuq va kamchiliklari haqida tasavvur uyg‘otuvchi tadqiqotni amalga oshiradi. Matn taqdiri, saqlanish darajasi, nashr bezaklari va tavsifiy belgilarini o‘rganish matn tushunchasining klassik ta’rifiga sig‘masa-da, matnshunoslikda qabul qilingan matn tushunchasi, uni o‘rganish doirasiga kiradi. Matnshunoslikning asosiy uslubiy prinsipi matn tarixini kompleks ravishda o‘rganishdir. U matn taqdirini yoritadi va matndagi o‘zgarish xususiyatlari, sabablari va bosqichlarini oydinlashtiradi. Matnshunoslikning tadqiq usullari bir qancha bo‘lib, umum e’tirof etilgan qoidalarga matniy tafovutlarni tahlil qilish, ko‘chirishdagi xatoliklarni tahlil etish, muallif matni xatoliklarini aniqlash, matnni ongli ravishda o‘zgartirish hollarini aniqlash, qo‘lyozma tavsifini amalga oshirish, kon’ektura yo‘li bilan matnni tiklash, qo‘shimchalar va tushirib qoldirishlarni aniqlash, gloss va interpolatsiyalar tahlili, qo‘lyozma nusxalar o‘rtasidagi farqlar tahlili, nusxalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va munosabatni aniqlash, matnlarni tahlilini o‘z ichiga oladi. Ushbu bobda Qosimjon Sodiqovning “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik”¹ o‘quv qo‘llanmasini ilmiy jihatdan tasnifini ko‘rib chiqamiz.

¹ Sodiqov Q. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2017. –B 169.

Ushbu o'quv qo'llanmada matnshunoslik va manbashunoslikning nazariy hamda amaliy asoslari bayon qilingan. Unda O'rta Osiyo xalqlarining yozuv madaniyati tarixi, kitobat ishi, uning yuzaga kelishi va takomili, qo'lyozma kitoblari, qo'lyozmalarni tavsiflash masalalari yoritilgan. Shuningdek, kitobda qo'lyozma manbalar asosida ilmiy matn yaratish prinsiplari ochib berilgan. Kitob 2017-yilda chop etilgan bo'lib, mavzular ko'lami juda keng. Birinchi mavzuda matnshunoslik va adabiy manbashunoslik fanlarining ilmiy tavsifi, ma'nosi to'laligicha ochib berilgan. Manbashunoslikning adabiy, tarixiy kabi ma'nolari haqida ilmiy tushunchalar bayon qilingan. Manbashunoslik, o'z navbatida, fanning biror sohasiga (masalan, matematika, aertonomiya, geofizika, meditsina, tilshunoslik singari) tegishli yozma manbalarni ham tadqiq etadi. Fanning bu tarmog'i ilmiy asarlar manbashunosligi bo'lib, u ilmiy manbaning mundarijasi va tuzilishi, asarning ilmiy ahamiyati, matn tarjimalari, talqini bilan shug'ullanadi deya izoh beriladi. Shuningdek, matnshunoslik tarixi, Lixachev asarlari hamda shundan so'ng o'zbek olimlari Habibullayev, Porso Shamsiyev, Shuhrat Sirojiddinov xizmatlari va ular yozgan qo'llanmalarning ahamiyati haqida so'z borgan. Ushbu qo'llanmada kitobshunoslikning rivojlanish tarixi haqida ham yoritilgan bo'lib, qadimgi turkiy til tarixidan to hozirgacha bo'lgan davrda bu sohaning rivojlanishi, shakllanishi haqida mulohazalar bayon etilgan. Qiziqarli tarafi shundaki, Eski turkiy tildagi atamalar va ularning izohi ham mukammal bayon qilingan. O'rta Osiyo xalqlarining yozuv tarixi va tamoyillari haqida muhim va kerakli ma'lumotlar keltirib, yozuvning paydo bo'lishi, takomili va tarixiy bosqichi, yozuv turlari fonetik jihatdan farqlanishi, qadimgi alifbolar va shu alifbolarda yozilgan qadimgi yozuvlar arab yozuvi hamda O'rta Osiyoga shu xatning kirib kelishi haqida batafsil hamda mukammal yoritilgan.

Shuningdek, kishilik tarixida yozuvning paydo bo'lishi, qanday qilib yozuvga ehtiyoj tug'ilganligi haqida so'z boradi, yozuv amaliyotini piktografik, ideografik, bo'g'in yozuvlari boshlab beradi. Dunyodagi barcha yozuvlar ildizi bir ekanligi aytib o'tiladi. Ilk fonetik yozuvni finikiylar o'ylab topganligini va 22 belgili alifboni yaratganliklari keltiriladi. Yozuv tarixi, uning keng yoyilishi haqida ham batafsil ma'lumot berib o'tgan. Ko'k turk yozuvi nomli alohida bob keltirilgan bo'lib, bu bobda bu yozuvning paydo bo'lishiga qaysi omillar sabab bo'lganligi aytiladi. Alifbolarning turli tuman shakllari keltirilib o'tiladi. Fonetika hodisalari, yozma yodgorliklar, Kul tigin va Bilga xoqon, Yo'llug' tegin asarlari, matnning o'qilishlarigacha mukammal tasvirlangan:

“Ўки *bitig* билан ясалган бошка атамалар: *has bitig* - бош, асосий хужжат; *bos bitig* - эрк хужжати; кулга эркинлик хукукини берувчи хужжат; *bos idmis bitig* - эркинлик берувчи хужжат; *kdyli aytu bitig* - кунгил суровчи мактуб; *yantut bitig* - жавоб хати; *bicyas bitig* — касам битами; *qumaru bitig* - насих, атнома, васиятнома;

saqurt bitig ~ аралаш сузлар лугати; *toijqul bitig* - эълон килинган асар; *bitigtas* - битигтош; *bitig salam* - салом хат; мактуб; *bitig iisik* - ёзув, хат, сингари.

Bitig сузи узи боғланган феъллар билан куйидаги маъноларни англатади: *bitig berdi* - хужжат берди; *bitig bitidi* ~ хат ёзди; *bitig kociirdi* — бир нусхадан бонщасига кучирди; *bitig biiriildi* - мактуб, хат бураб букланди; *bitigyuSti*- хатни кириб учирди; *bitigyuldi*- китобни кучириб ёзди; *bitig tiiriildi* - хат уралди. Хат битувчи кимсани *bitig bititgiici* дейилган”².

Bir qator soʻzlar va ularning maʼnolari, kelib chiqishi ham ifodalangan. Bitikdoshdagi soʻzlar va ularning tavsifi ochiq ifodalangan. Muallif shundan soʻng yozma yodgorliklar haqida yetarli maʼlumot keltirib oʻtgan, 5 xil turkumga boʻlinuvchi yozma yodgorliklar va ularning nomlari birma-bir keltirib oʻtilgan. Uygʻur yozuvi, moniylik muhitida yaratilgan bitiglar, nasroniylik davrida hamda islom davrida yaratilgan bitiklar va har davrning oʻziga xos namunalari va ular haqida qisqacha taʼrif yozilgan. Temuriylar davri bitiklari oʻzining yoʻnalishi, boyligi, serqirraligi bilan ajraib turganligi, bu davrda yozuv madaniyati, xattotlik va kitobatchilik ancha yuqori mavqega koʻtarilganligi, bu davr yozuv madaniyati va kitobat tarixining klassik davri hisoblanganligi, uygʻur xatiga ham alohida eʼtibor qilinganligi haqida fikrlar berib oʻtilgan. Temuriylar davri, bu davrdagi turli yozuvlar kitoblarning yaratilishi, nega aynan uygʻur yozuvi tanlanganligi, kimlar bu tilda qaysi asarlarni yozganligi haqida turlicha maʼlumotlar yozilgan, shundan soʻng Moniy yozuvi degan mavuga oʻtilgan. Bu yozuvning paydo boʻlish tarxi haqida muallif tomonidan fikrlar bildirib oʻtilgan.

Qoʻlyozma matnlarni transkripsiya qilish borasida ham anchagina kerakli dalillar qoʻllanmada mavjud. Qoʻlyozma matnlarni transkripsiyaga oʻgʻirish masalasi biroz mushkulroq. Bu boʻlimda qoʻlyozma asarlar transkripsiyasi hamda unga doir misollar hamda amaliy jihati yoritilgan. Beshinchi boʻlimda esa matnlarni chogʻishtiriish, qoʻlyozma nusxa, tayanch nusxa, yordamchi nusxa, ilmiy matn, ilmiy-tanqidiy matn, yigʻma matn, ilmiy apparat kabi atamalar haqida asosli fikrlar keltirilib, eʼtibor qaratiladigan masalalar:

Ilmiy matn va uning turlari, ilmiy-tanqidiy matn tuzish prinsiplari, yigʻma matn tuzish prinsiplari, yigʻma matn tuzishda ilmiy apparatni qoʻllash, asar qoʻlyozmalarini qiyosiy oʻrganish va matn tahriri masalasi qaratiladi. Asar qoʻlyozma nusxalarini qiyosiy oʻrganish jarayonida eʼtibor qaratiladigan masalalar, kelib chiqadigan nazariy xulosalar, tayanch qoʻlyozmani saqlab olish va asarning qiyosiy matnini tuzish yoʻllari, yozma manbani tavsiflash yoʻllari,

² Sodiqov Q. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2017. –B 9.

ilmiy matnlar hamda ularning turlari haqida yozilgan. Bular uch xil bo'lib, ilmiy, ilmiy-tanqidiy hamda yig'ma matn hisoblanadi. Bu matnlarning har biriga yetarlicha izoh va namunalar berilgan. So'nggi yillarda o'zbek matnshunosligida yaratilgan ilmiy-tanqidiy matnlarga Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" (Rashidova 1991), "Saddi Iskandariy" (Xamidova 1994), "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat" asarlari bo'yicha tuzilgan, shuningdek, Gulxaniyning "Zarbulmasal"i bo'yicha tuzilgan (Isxokov F. 1997) ilmiy matnlarni misol qilib keltirsa bo'ladi. Ushbu asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlari asosida nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ham yoqlandi.

Yig'ma matn deganda asarning mavjud yoki bir nechta kadrli qo'lyozmalari asosida ulardan yig'ib, asarning to'la ilmiy nashrini yaratish tushuniladi. Bunda asarning muayyan nusxasida tushib qolgan baytlar, jumlar yoki bo'limlar ikkinchi bir nusxadan olib to'ldiriladi. Keyingi mavzu matn tahriri masalasi bo'lib, bunda matnni tuzish, uni tahrirlash qaysi jihatga yaqqol e'tibor berish haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Kultegin va Bilga xoqonlarning bitiktoshlari hamda ularda yozilgan xoqon so'zlarning yozma chog'ishtiruv amalga oshirilgan bo'lib, bu matnlar matnshunoslik rivojini belgilab bergan matnlar hisoblanadi. Bunda matnlarning har bir belgisiga fonetikaga alohida e'tibor berilgan. Keyingi mavzuda "Qutadg'u bilig" asarining chog'ishtirma tahlili haqida ma'lumot berib o'tilgan. Fanda "Qutadg'u bilig"ning uchta yirik qo'lyozmasi ma'lum. Ularning biri qadimgi turkiy-uygur, ikkisi arab xatida, arab yozuvli qo'lyozmalar (Namangan va Qohira nusxalari), taxminlarga ko'ra, XIII-XIV yuz yilliklar oralig'ida ko'chirilgan. Uygur yozuvli nusxani esa 1439-yili hirotlik Xasan Kora Sayil Shame³ baxshi ko'chirgan. Uygur yozuvli qo'lyozma hozir Vena Milliy kutubxonasida, Namangan nusxasi Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti qoshidagi Sharq qo'lyozmalari markazida, uchinchisi esa Qohirada saqlanmoqda. Asarning Hirot nusxasi, matnning murakkabligidanmi olimlar e'tiboridan deyarli chetda qolib kelmoqda. Vaholanki, bu nusxaning o'ziga yarasha yutuklari oz emas. Kuzatuvlarga ko'ra, uyg'ur yozuvli qo'lyozma boshqalariga qaraganda eskiroq nusxadan ko'chirilgani ayon bo'lmoqda. Bu chog'ishtiruvda har bir asarga alohida alohida e'tibor qaratilgan. Har bir harf, har bir belgi o'zaro qiyoslangan. Asar nusxalarini o'zaro chog'ishtirish jarayonida matn va mazmun bilan bog'lik buning singari misollar ko'p chiqadi. Bulardan ko'rinadiki, muallifning o'zi tirikligidayoq, asarning bir nechta varianti bo'lgan. Bizgacha saqlangan qo'lyozmalar bir nusxadan emas, uning turli variantlaridan ko'chirilgan, deb qarash to'g'ri bo'ladi. "Devonu lug'otit-turk" qo'lyozmasida ishlatilgan harfiy ishoratlar va ayrim so'zlarning o'qilishi "Devonu lug'otit-turk" asarining bittagina qo'lyozmasi ma'lum, u ham bo'lsa, oldin emas, keyingi davrga tegishli. Eng muhimi, qo'lyozmada turkiy

³ "Qutadg'u bilig" ni uyg'ur tilidagi nusxasini ko'chirgan.

misollarning to'g'ri o'qilishini ta'minlash uchun ularga turli diakritik belgilar izchil qo'yib borilgan. Shu o'rinda matn imlosi, turkiy misollarga qo'yib ketilgan diakritik belgilar bilan bog'lik bir xususiyatga e'tibor qaratmoqchimiz. Qizig'i shundaki, qo'lyozmada ayrim o'rinlarda muayyan harf ustiga va ostida bir yo'la ikki xil xarakat: fatha va kasra yoki zamma va kasra qo'yib ketilgan. Shu tariqa bu asar yuzasidan ham yetarli izlanishlar olib borilgan va tadqiqotlar ushbu qo'llanmada berilgan. Alisher Navoiy o'zining ikki asarida Adib Ahmad Yugnakiyni hurmat ehtirom bilan tilga olgan. Biri, "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida, u yerda Navoiy adibning ko'zi ojiz ekani, lekin o'ta ziyrak va zakiyligini ta'kidlab, uning bilan bog'liq bir naqlni eslaydi⁴. Adibning turk alfozida bitgan pand-u o'gitlarini yuqori baholab, uning she'riyat ahli orasida shuhrat topgan shoh baytlaridan o'rnaklar keltiradi Ahmad Yassaviy asarlari, ularning tahlili to'liq yozilgach, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining chog'ishtirma tahlili haqida ma'lumot beriladi. To'rta nusxa to'laqonli tahlildan o'tkaziladi, imlosi transkriptsiyasi, belgilari o'zaro solishtiriladi. Keyingi mavzu asarning tayanch nusxasini qanday aniqlash borasida bo'ladi. Bir necha qo'lyozma asosida asarning ilmiy-tankidiy yoki yigma matnini tuzish uchun, boshlab, tayanch nusxani, ya'ni tuzilajak ilmiy matn uchun asos bo'luvchi qo'lyozma nusxani saqlay olmoq kerak bo'ladi. Tayanch nusxani saqlab olishda qo'lyozma haqida kerakli faktlar keltiriladi. Asarning qiyosiy matnini tuzish, hamda shu qiyosiy matnga namunalar beriladi. Yozma manbani tavsiflash uchun ham alohida mavzu yozilib, qay tarzda amalga oshirish borasida maslahat berilgan. Shu tariqa bu qo'lyozma tugallangan, lug'atlar, qisqacha izohlar berilgan. Ushbu qo'llanma anchagina mukammal nashr bo'lib, matnshunoslik bo'yicha, manbashunoslik bo'yicha kerakli va muhim jihatlar izchil yoritilgan, birma-bir izohlangan. Qosimjon Sodiqovning "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" qo'llanmasi adabiyotshunoslik sohasida muhim ilmiy qo'llanmalardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda matnshunoslik va manbashunoslikning nazariy asoslari, metodlari hamda amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Kitob asosan quyidagi asosiy qism va mavzulardan iborat⁵:

1. Kirish qismi: Matnshunoslik va manbashunoslikning ahamiyati

Ushbu sohalarning adabiyotshunoslikdagi o'rni va vazifalari.

Matn va manbaning ta'rifi, ularning adabiy tadqiqotlar uchun ahamiyati.

2. Matnshunoslikning nazariy asoslari:

- matnning mohiyati va turlari;
- matnni o'rganish metodlari;
- matnni ilmiy nashrga tayyorlash qoidalari

3. Adabiy manbashunoslikning asosiy masalalari:

⁴ Alisher Navoiy Nasoyim ul-muhabbat risolasi. O'ninchi jild – Toshkent: G'. G'ulom, 2012. . –B 61.

⁵ Sodiqov Q. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2017. –B 25.

- manba tushunchasi va uning turlari (qo'lyozma, toshbosma, litografik manbalar);
- adabiy manbalarni izlash, aniqlash va tasniflash usullari;
- manbalar tarixiyligi va ishonchliligi

4. O'zbek adabiyoti manbalari va matnshunosligi

- o'zbek mumtoz adabiyoti matnlari va ularni o'rganish.
- Alisher Navoiy, Bobur va boshqa buyuk adiblar asarlarining matnshunoslik tahlili;
- adabiy merosni saqlash va targ'ib qilishda manbashunoslikning ahamiyati.

5. Xulosa va amaliy ko'rsatmalar

Matnshunoslik va manbashunoslik tadqiqotlarining kelajakdagi yo'nalishlari.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun tavsiyalar.

Ushbu qo'llanma nafaqat adabiyotshunoslik sohasi mutaxassislari, balki ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziquvchi talabalar va tadqiqotchilar uchun ham muhim manba hisoblanadi. Kitobning ilmiy-tadqiqot asosi puxta bo'lib, unda nazariya va amaliyot uyg'unlashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rahmonov V. Mumtoz so'z sehri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. – 110 b.
2. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. – Toshkent: Navoiy universiteti nashriyot matbaasi, 2019. – 218 b.
3. Sirojiddinov Sh., Umarova S. O'zbek matnshunosligi qirralari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 128 b.
4. Sodiqov Q. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2017. – 216 b.
5. Erkinov A., Polvonov N., Aminov H. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fihristi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 384 b.
6. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik, 2000. – 172 b.